



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

Xulosa

Turli muassasalar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni nafaqat jamoat markazlari tarkibida, balki shaharning piyodalar yo'laklari bo'ylab alohida joylashtirishda optimal masofalarni farqlash aholi uchun eng katta qulaylik yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Римша А, Н. Прадостроительство условиях жаркого климата. М, Стройиз- t дат, 1972.
2. Римша А, Н. Основы градостроительства в условиях жаркого климата (кон- спект лекций). Университет дружбы народов имени П. Лумумбы. М, 1969
3. https://books.totalarch.com/urban_development_in_hot_climates_1979
4. <https://urss.ru/cgi-bin/db.pl?lang=Ru&blang=ru&page=Book&id=26394&srsltid=AfmBOopt26o3mhzFYik00lYFwppn0M5dZkJTp4Cjxit2Y9XS9txlcek>

SAVDO VA KO'NGILOCHAR MAJMUALARNING TIPOLOGIK YECHIMLARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TATBIQ ETISH (JAHON TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL)

Sobirov Azamat Sadullayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Arxitektura"

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada savdo va ko'ngilochar majmualarning zamonaviy arxitekturadagi o'rni, ularning funksional va tipologik yechimlari chuqur tahlil qilinadi. Jahon tajribasidagi ilg'or loyihalar asosida, bunday majmualarning shahar muhitidagi ahamiyati, ekologik va texnologik yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi yoritiladi. Xususan, Singapur, Istanbul, Seul kabi shaharlarda shakllangan savdo majmualarining zamonaviy modeli O'zbekiston shaharsozligiga qanday moslashtirilishi mumkinligi izohlanadi. Mavjud kamchiliklar, tarqoq infratuzilma va funksional aloqalarning uzilishlari asosida MFZ va FPC yondashuvlarining ahamiyati

asoslanadi. O'zbekiston shaharlaridagi amaliy holatlar, GOST va SP standartlariga muvofiq konstruktiv va rejalashtirish talablari misollar bilan yoritiladi. Yakunda, zamonaviy savdo majmualarini milliy sharoitga moslashtirish uchun kompleks yondashuv taklif qilinadi.

Аннотация

В статье глубоко анализируется роль торговых и развлекательных комплексов в современной архитектуре, их функциональные и типологические решения. На основе передовых проектов мирового опыта освещается значение таких комплексов в городской среде, их гармонизация с экологическими и технологическими подходами. В частности, объясняется, как современная модель торговых комплексов, сформированных в таких городах, как Сингапур, Стамбул, Сеул, может быть адаптирована к градостроительству Узбекистана. На основе существующих недостатков, разрозненной инфраструктуры и разрывов функциональных связей обоснована значимость подходов MFZ и FPC. Практическая ситуация в городах Узбекистана, конструктивные и планировочные требования в соответствии со стандартами ГОСТ и СП освещаются на примерах. В заключение предлагается комплексный подход к адаптации современных торговых комплексов к национальным условиям.

Annotation

The article provides an in-depth analysis of the role of commercial and entertainment complexes in contemporary architecture, focusing on their functional and typological solutions. Based on advanced international projects, it highlights the significance of such complexes in the urban environment and their integration with ecological and technological approaches. In particular, the paper explains how the modern models of commercial complexes developed in cities like Singapore, Istanbul, and Seoul can be adapted to urban planning in Uzbekistan. The importance of MFZ (multi-functional zones) and FPC (functional-planning connections) approaches is substantiated, taking into account existing shortcomings, fragmented infrastructure, and disrupted functional links. The report also presents practical cases from cities in Uzbekistan, illustrating structural and planning requirements in accordance with GOST and SP standards. In conclusion, a comprehensive approach is proposed for adapting modern commercial complexes to national conditions.

Kalit so'zlar

Shaharsozlik arxitekturasi, savdo majmualari, ko'p funktsiyali zonalar (MFZ), funksional-rejalashtirish aloqalari (FRA), barqaror shahar rejalashtirish, xalqaro

tajriba, ekologik integratsiya, GOST standartlari, O'zbekiston shaharlari, moslashuvchan loyihalash.

Ключевые слова

Градостроительная архитектура, торговые комплексы, многофункциональные зоны (МФЗ), функционально-планировочные связи (ФПЗ), устойчивое градостроительство, международный опыт, экологическая интеграция, стандарты ГОСТ, города Узбекистана, гибкое проектирование.

Keywords

Urban architecture, commercial complexes, multifunctional zones (MFZ), functional-planning connections (FPC), sustainable urban planning, international experience, ecological integration, GOST standards, Uzbekistan cities, adaptive design.

Kirish

Bugungi urbanizatsiya sharoitida zamonaviy shahar infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida savdo va ko'ngilochar majmualar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi zichligi ortib borayotgan megapolislar va rivojlanayotgan shaharlar uchun bu majmualar faqatgina xarid qilish joyi emas, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik faoliyatlar uchun ham markazga aylanmoqda. Xalqaro tajribada bunday majmualar ko'p funksiyali makon sifatida shakllanib, odamlarning turmush sifati va shaharning umumiy jozibasini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

O'zbekiston shaharsozligida ham bunday majmualarni joriy etish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Ammo mavjud infratuzilma, funksional uzilishlar va arxitektura standartlarining yetarlicha tatbiq etilmasligi ularning to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada savdo va ko'ngilochar majmualarning zamonaviy tipologik yechimlari, xalqaro tajriba asosida tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilish prinsiplari o'rganiladi.



a.



b.

1-rasm. a - Singapurning “Jewel Changi” savdo majmuasi tashqi ko’rinishi; b - Singapurning “Jewel Changi” savdo majmuasi inter`eri

Zamonaviy shaharlar rivojlanishida savdo va ko’ngilochar majmualar nafaqat iqtisodiy muhim ob’ekt, balki jamiyat madaniyati, dam olish madaniyati va ijtimoiy hayotining ko’zgusi sifatida shakllanmoqda. Bunday majmualar aholining turli ehtiyojlarini bir joyda qondirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa nafaqat zamonaviy hayot tarzining, balki urbanizatsiya jarayonining ham muhim ko’rsatkichidir. Bugungi kunda savdo majmualari o’zida bir nechta sohani – savdo, xizmat ko’rsatish, ko’ngilochar, sport, ofis va hatto yashash funksiyalarini mujassamlashtirgan ko’p funksiyali komplekslarga aylangan. Bu esa ularning arxitektura, shaharsozlik, ekologik va texnologik jihatdan puxta rejalashtirilishini talab etadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, masalan, Singapurning “Jewel Changi” majmuasi nafaqat yirik savdo markazi, balki xalqaro aeroport bilan integratsiyalashgan landshaft va ekologik makon sifatida e’tirof etiladi (1-rasm).

Uning markazida joylashgan sun’iy sharshara, tropik bog’lar va yoritilgan atrium maydonlari bu majmuaning nafaqat tijorat, balki dam olish va tabiat bilan uyg’unlikda bo’lish kabi funksiyalarini ifodalaydi. Jewel Changi aeroporti (shuningdek, Jewel nomi bilan tanilgan) Singapurdagi Changi aeroportining yo’lovchi terminallaridan biri bilan o’ralgan va u bilan bog’langan tabiatga bag’ishlangan ko’ngilochar va chakana savdo majmuasidir. Uning markazida

dunyodagi eng baland yopiq sharshara - Yomg'ir girdobi bo'lib, u terasli o'rmon bilan o'ralgan mo'jaz makon hisoblanadi.

Yoki Istanbuldagi “Kanyon” savdo markazi ochiq va yopiq makonlarni aralashtirgan, tabiiy shamollatishga mos va mahalliy landshaftga singdirilgan kompleksdir (2-rasm). Bu kabi majmualar shahar muhitida yangi turmush makonlarini yaratadi. Ular shahar hayotining intensivligiga moslashadi, har xil yoshdagi va turli ehtiyojdagi insonlar uchun imkoniyatlar yaratadi,

O'zbekiston sharoitida esa savdo va ko'ngilochar majmualar hali ko'p hollarda tarqoq, alohida inshootlar tarzida tashkil etilgan. Bu esa zamonaviy shahar hayotining talablariga to'liq javob bermaydi. Masalan, Urganch shahri markazida joylashgan “Dexkon bozori” hududidagi savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari bir-biri bilan bog'lanmagan, alohida joylashgan, kommunikatsiyalar markazlashmagan. Bu holat nafaqat qulaylikni kamaytiradi, balki shahar ko'rinishining tizimliliigi va estetik



a.



b.

2-rasm. a,b- Istanbuldagi “Kanyon” savdo markazi ochiq va yopiq makonlarni tashqi ko'rinishi

birlikiga ham zarar yetkazadi. Shu sababdan, O'zbekiston sharoitida mavjud infratuzilmalarni kompleks yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, ularni ko'p funksiyali, energetik va ekologik jihatdan samarali majmualarga aylantirish zarur.

Milliy shaharsozlik tizimida MFZ (mahalliy funksional zona) va FRM (funksional rejalashtirish mezoni) tushunchalari asosida yangi loyihalash metodikasini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv hududni zonal tashkil

etish, kommunikatsiyalarni optimallashtirish, transport va piyodalar harakatini tartibga solish, shuningdek, xizmatlar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Misol uchun, Toshkent shahridagi "NEXT" savdo majmuasi qisman bunday yondashuvga ega: unda savdo qismi, restoran zonasi, bolalar maydonchasi va er osti avtoturargohi mavjud. (3-rasm).



a.



b.

3-rasm. a- Toshkent shahridagi "NEXT" savdo majmuasini tashqi ko'rinishi; b- Toshkent shahridagi "NEXT" savdo majmuasini umumiy ko'rinishi

Savdo va ko'ngilochar majmualarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ularning shahar makonida to'g'ri joylashtirilishi muhim omildir. Transport infratuzilmasiga yaqinlik, piyoda yo'laklari bilan integratsiyalashganlik va jamoatchilik joylariga (parklar, metro, ofis hududlari) yaqinlik bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, Istanbuldagi "Zorlu Center" va Seuldagi "COEX Mall" majmualari aynan shunday yondashuv asosida tashkil etilgan.

Zamonaviy majmualar raqamli yechimlar bilan boyitilgan "aqlli" tizimlarni ham qamrab oladi. Bunga masofaviy boshqaruv, interaktiv yo'nalish tizimlari, raqamli to'lov tizimlari va foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qiluvchi sun'iy intellekt texnologiyalari kiradi. Bu turdagi funksiyalar foydalanuvchilarning qulayligini oshiradi va boshqaruv tizimini optimallashtiradi.

Bugungi loyihalashda jamiyatning turli qatlamlarini (nogironlar, keksalar, bolalar) hisobga olgan holda inkluziv yondashuv zarur bo'lib bormoqda. Savdo majmualarida panduslar, liftlar, keng yo'laklar, nutq yoki eshitish qobiliyati cheklanganlar uchun mos navigatsion belgilarning mavjudligi – bu global talab bo'lib, O'zbekiston tajribasiga ham tatbiq etilishi lozim.

Zamonaviy arxitektura loyihalarida xalqaro standartlarga rioya qilingan holda milliylikni saqlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu, ayniqsa, fasad elementlari, ichki bezaklar, landshaft dizayni va foydalaniladigan materiallarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mahalliy hunarmandchilik, dekorativ san'at unsurlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali noyob dizayn echimlariga erishish mumkin.

Majmualarning arxitektura rejalashtirishida ekologik barqarorlik muhim o'rin tutadi. Jahon standartlariga ko'ra, binolarda tabiiy yoritish, shamollatish, issiqlik izolyatsiyasi, quyosh panellari, yomg'ir suvidan foydalanish kabi yechimlar keng qo'llanilmoqda. Bunday yondashuvlar GOST 27751, SP 20.13330, GOST R 58154 kabi me'yoriy hujjatlar asosida belgilanadi. Jumladan, – ruxsatsiz etilgan fasad sistemalari, shamollatiladigan fasadlar, yuqori bosimga bardoshli shisha panellar (kamida 6 mm qalinlikda) – bu kabi texnik jihatlar binolarning ishonchliligi va ekspluatatsion xavfsizligini ta'minlaydi. Ayniqsa, O'zbekistonning turli iqlimiy zonalarida (masalan, Qoraqalpog'istonning kuchli shamolli iqlimi yoki Andijonning issiq yozgi iqlimi) fasad materiallarining fizik-me'yoriy bardoshliligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Savdo va ko'ngilochar majmualarda ichki aloqalarning shakllanishi – stilobat, yo'lak, atrium, er osti yo'laklari va galereyalar orqali tashkil etilishi mumkin. Bu, nafaqat foydalanuvchilarning erkin harakatini, balki xavfsizlik, issiqlik muhofazasi va vizual ko'rinish birligini ta'minlaydi. Ko'p funksiyali markazlarda ichki ichki transformatsiyaga ega ofis makonlari, sport zonalari, restoranlar va bolalar markazlari moslashuvchan tarzda bir-biriga ulanadi. Bunday model turar joy maydonlari yaqinida yoki transport yo'nalishlari bo'yida tashkil etilsa, yana-da ko'proq ijtimoiy samara beradi.

Tarixan savdo markazlari ochiq rastalar – bozorlar ko'rinishida bo'lgan. Ular ijtimoiy-iqtisodiy hayotning markazida joylashgan va aholini mahsulot bilan ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq bugungi kunda savdo markazlari shunchaki xarid qilish makoni emas, balki odamlar uchun muloqot qilish, hordiq chiqarish, madaniy

hayotda ishtirok etish joyiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar va oilali foydalanuvchilar uchun interaktiv, xavfsiz, estetik jihatdan jozibador makon yaratish zamonaviy majmualar oldidagi asosiy talab hisoblanadi. Bunda milliy me'morchilik elementlari, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda, o'ziga xoslik saqlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida zamonaviy savdo va ko'ngilochar majmualarni shakllantirishda bir necha asosiy jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, mavjud tarqoq joylashuvlarni kompleks, birlashtirilgan, kommunikatsiyaviy bog'langan majmualarga aylantirish kerak. Ikkinchidan, MFZ va FPC kabi zamonaviy rejalashtirish yondashuvlarini tatbiq etish va ekologik hamda texnologik talablarni inobatga olish lozim. Uchinchidan, xalqaro tajribadan foydalanib, jamoatchilik makonlarini foydalanuvchi uchun qulay, xavfsiz, madaniy jihatdan boyitilgan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jahon tajribasiga asoslangan, milliy ehtiyojlarga mos zamonaviy savdo majmualari O'zbekistonning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim poydevorga aylanishi shubhasiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.docs.cntd.ru — Rossiya davlat standartlari va qurilish me'yorlari (GOST, SP, SNIP) rasmiy portali.
2. www.normacs.ru — Qurilish normalari va standartlarini yuklab olish mumkin.
3. www.gostinfo.ru — GOST va boshqa texnik reglamentlar arxivi.